

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

G'AFUR G'ULOM NASRIDA QAHRAMON NUTQIY PORTRETINI SHAKLLANTIRUVCHI LEKSIK-USLUBIY VA PRAGMATIK VOSITALAR

Xamidova Nodira Sattorovna

Termiz davlat pedagogika instituti, o'qituvchi.

e-mail: hamidovanodira786@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-7138-0816>

Annotatsiya.

Maqolada G'afur G'ulom nasriy asarlarida qahramon nutqiy portretini shakllantiruvchi leksik-uslubiy va nutqiy-muloqotga oid vositalar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi personaj nutqida qo'llangan til birliklarining uning hissiy, ijtimoiy va muloqotga oid xususiyatlarini namoyon etishdagi vazifalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida "Shum bola", "Yodgor" va "Netay" asarlaridagi personajlarning bevosita nutqi hamda dialogik parchalar tanlangan. Material tavsifiy, kontekstual, lingvostilistik, nutqiy vaziyat va muloqot tahlili usullari asosida o'rganilgan. Tahlil natijasida hissiy-baholovchi leksika, erkalash va hurmat shakllari, murojaat birliklari, haqorat va qarg'ish ifodalari, so'zlashuvga xos leksik vositalar, nutqiy aktlar, oldindan ma'lum yashirin axborot hamda kinoyaviy tagma'no qahramon nutqiy portretini shakllantirishda o'zaro bog'liq vazifalarni bajarishi aniqlangan. Ushbu vositalar personajning tinglovchiga munosabati, hissiy holati va muloqotga oid xulqini uning nutqi orqali ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: G'afur G'ulom, nutqiy portret, qahramon nutqi, lingvostilistika, nutqiy muloqot tilshunosligi, hissiy-baholovchi leksika, murojaat birliklari, nutqiy akt, oldindan ma'lum yashirin axborot, tagma'no.

ЛЕКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОГО ПОРТРЕТА ГЕРОЯ В ПРОЗЕ ГАФУРА ГУЛЯМА

Хамидова Нодира Сатторовна

Термезский государственный педагогический институт, преподаватель.

Аннотация.

В статье анализируются лексико-стилистические и речекоммуникативные средства формирования речевого портрета героя в прозаических произведениях Гафура Гуляма. Цель исследования заключается в определении функций языковых единиц, используемых в речи персонажей, в раскрытии их эмоциональных, социальных и коммуникативных особенностей. Материалом исследования послужили непосредственная речь персонажей и диалогические фрагменты из произведений «Озорник», «Ядгар» и «Нетай». Материал исследован с применением описательного, контекстуального, лингвостилистического методов, а также анализа речевой ситуации и коммуникации. В результате установлено, что эмоционально-оценочная лексика, формы ласкательности и уважения, единицы обращения, выражения оскорбления и проклятия, разговорная лексика, речевые акты, имплицитная информация и иронический подтекст выполняют взаимосвязанные функции в формировании речевого портрета героя. Эти средства позволяют через речь персонажа раскрыть его отношение к собеседнику, эмоциональное состояние и коммуникативное поведение.

Ключевые слова: Гафур Гулям, речевой портрет, речь героя, лингвостилистика, речевая коммуникация, эмоционально-оценочная лексика, единицы обращения, речевой акт, имплицитная информация, подтекст.

LEXICAL-STYLISTIC AND PRAGMATIC MEANS OF CONSTRUCTING A CHARACTER'S SPEECH PORTRAIT IN GAFUR GULOM'S PROSE

Xamidova Nodira Sattorovna

Termez State Pedagogical Institute, Lecturer.

Abstract.

The article analyzes the lexical-stylistic and communicative means used to construct a character's speech portrait in Gafur Gulom's prose. The study aims to identify the functions of linguistic units employed in characters' speech in revealing their emotional, social, and communicative characteristics. The research material consists of direct speech and dialogue excerpts from *Shum Bola*, *Yodgor*, and *Netay*. The material is examined using descriptive, contextual, linguostylistic, speech-situation, and communication analysis methods. The findings show that emotive-evaluative vocabulary, forms of endearment and respect, forms of address, expressions of insult and curse, colloquial lexical means, speech acts, implicit information, and ironic subtext perform interconnected functions in

constructing a character's speech portrait. These devices reveal the character's attitude toward the interlocutor, emotional state, and communicative behavior through speech.

Keywords: Gafur Gulom, speech portrait, character speech, linguostylistics, speech communication, emotive-evaluative vocabulary, forms of address, speech act, implicit information, subtext.

Kirish. Badiiy matnda personaj nutqi qahramonning individual qiyofasini shakllantiruvchi muhim lisoniy vositalardan biridir. Qahramonning so'z tanlashi, murojaat shakllaridan foydalanishi, hissiy-baholovchi birliklarni qo'llashi va muayyan nutqiy vaziyatda qanday muloqotga oid harakatni amalga oshirishi uning boshqa personajlardan farqlanuvchi nutqiy belgilarini yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan qahramon nutqini alohida til birliklari yig'indisi sifatida emas, balki muayyan lisoniy qiyofani shakllantiruvchi tizim sifatida o'rganish maqsadga muvofiq.

Nutqiy portret tushunchasi til shaxsining nutqda namoyon bo'ladigan xususiyatlarini tizimlashtirish bilan bog'liq. O. I. Astashova nutqiy portretni til shaxsini tavsiflash janri, so'zlovchining nutqiy materialini tizimlashtirish algoritmi va shaxsning lisoniy qiyofasini yaratish usuli sifatida talqin qiladi. Muallif nutqiy portretni tavsiflashda kognitiv, nutqiy-muloqotga oid va verbal sathlarni, materialni tizimlashtirishda esa muloqotga oid hamda leksik-uslubiy belgilarni muhim deb hisoblaydi [1, 64-b.]. Mazkur yondashuv real til shaxsi nutqi asosida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, undagi nutqiy materialni leksik-uslubiy va muloqotga oid belgilar asosida tizimlashtirish tamoyili badiiy personaj nutqini o'rganish uchun ham metodologik ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda qahramon nutqiy portreti deganda personajning bevosita nutqida namoyon bo'lib, uning hissiy, ijtimoiy va muloqotga oid xususiyatlarini ochishga xizmat qiluvchi leksik-uslubiy hamda nutqiy-muloqotga oid belgilar majmui tushuniladi. Bu ta'rif mazkur maqola doirasida qabul qilingan ishchi ta'rifdir.

G'afur G'ulom nasriy asarlari tilining leksik xususiyatlari Z. Hamidov tomonidan maxsus o'rganilgan. Tadqiqotda "Tirilgan murda", "Netay", "Yodgor", "Shum bola" asarlari leksikasi, jumladan, iste'mol doirasi chegaralangan birliklar, hissiy bo'yoqdor so'zlar, bosh va ko'chma ma'nolar hamda ularning funksional-uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan [2, 2-b.]. Hissiy leksika esa so'zlovchining voqelikka ijobiy yoki salbiy subyektiv munosabatini ifodalovchi qatlam sifatida tavsiflanadi [2, 16-17-b.].

N. A. Qazaqova G'afur G'ulom nasriy asarlarini nutqiy-muloqotga oid jihatdan tadqiq etib, shaxs, nutqiy vaziyat, muloqotga oid strategiya va taktika, baho kategoriyasi, muloqot parchasi, oldindan ma'lum yashirin axborot, modallik, nutqiy akt va tagma'no kabi hodisalarni tahlil markaziga olib chiqadi [3, 8-b.]. Muallif nutqiy vaziyat va muloqot tahlilida shaxs omilini markaziy deb belgilab, ijtimoiy, madaniy, milliy, yosh va boshqa xususiyatlarni muloqot jarayonining muhim tarkibiy omillari sifatida ko'rsatadi [3, 12-b.].

Taqdim etilgan tadqiqotlarda G'afur G'ulom nasrining leksik-uslubiy va muloqotdagi imkoniyatlari alohida yo'nalishlarda yoritilgan. Biroq ushbu vositalarning qahramon nutqiy portretini shakllantiruvchi o'zaro bog'liq belgilar tizimi sifatidagi vazifasini bir markazda ko'rib chiqish mazkur maqolaning asosiy muammosini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi — G'afur G'ulom nasriy asarlarida qahramon nutqiy portretini shakllantiruvchi leksik-uslubiy va nutqiy-muloqotga oid vositalarni aniqlash hamda ularning personajning hissiy, ijtimoiy va muloqotga oid xususiyatlarini namoyon etishdagi vazifalarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga muvofiq hissiy-baholovchi birliklar, murojaat shakllari, so'zlashuvga xos leksik vositalar, nutqiy akt, oldindan ma'lum yashirin axborot va kinoyaviy tagma'noning qahramon nutqini individuallashtirishdagi o'rni o'rganiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot obyektni G'afur G'ulom nasriy asarlaridagi personajlar nutqi tashkil etadi. Tadqiqot predmeti qahramon nutqiy portretini shakllantirishda ishtirok etuvchi leksik-uslubiy va nutqiy-muloqotga oid vositalarning semantik, uslubiy va muloqotga oid xususiyatlaridan iborat.

Faktik material sifatida "Shum bola", "Yodgor" va "Netay" asarlaridagi personajlarning bevosita nutqi va dialogik parchalaridan foydalanildi. "Shum bola"dan keltirilgan misollar 2018-yilgi nashr [4], "Yodgor"dan olingan misollar esa 2012-yilgi "Tanlangan asarlar" nashri [5] asosida tekshirildi. "Netay"dagi so'zlashuv nutqiga oid misol Z. Hamidov tadqiqotida berilgan matn asosida olindi [2, 43-b.].

Faktik materialni tanlashda personajning hissiy munosabati, tinglovchiga munosabati, ijtimoiy yoki muloqotga oid holatini ko'rsatuvchi birliklar asosiy mezon sifatida olindi. Shuningdek, personaj nutqini boshqa qahramonlar nutqidan farqlashga xizmat qiluvchi so'zlashuv, hissiy va muloqot xususiyatli birliklar tahlilga jalb etildi.

Tadqiqotda tavsifiy tahlil aniqlangan til vositalarini vazifasiga ko'ra guruhlash uchun, kontekstual tahlil muayyan birlikning nutqiy vaziyatdagi semantik va pragmatik ma'nosini belgilash uchun, lingvostilistik tahlil hissiy-baholovchi, murojaat, haqorat, qarg'ish va so'zlashuvga xos birliklarning uslubiy vazifasini ochish uchun qo'llandi. Nutqiy-muloqotga oid tahlil esa personaj nutqining muloqotga oid maqsadi, nutqiy akti, yashirin mazmuni hamda so'zlovchi va tinglovchi munosabatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Maxsus miqdoriy korpus tuzilmagani sababli statistik usul qo'llanmadi. Shu bois xulosalar birliklarning chastotasiga emas, taqdim etilgan badiiy va ilmiy materiallarning sifat tahliliga asoslanadi.

NATIJALAR. Qahramon nutqiy portretini shakllantirishda hissiy munosabatni ifodalovchi leksik va morfologik vositalar muhim o'rin tutadi. "Yodgor"da Jo'raning onasi nutqida erkalash shakllari, egalik ma'nosi va takror birgalikda qo'llanadi: "Ninni, ninnigina, nevaraginamdan o'rgilay, yig'lmasin, yig'lmasin, mana, hozir buvingiz qo'lini artadi, do'ndiqqina, o'zim bag'riginamga bosaman!" [5, 119-b.].

Z. Hamidov ushbu turdagi birliklarda -gina shakli va egalik ko'rsatkichining hissiy munosabatni kuchaytirishini qayd etadi [2, 22-b.]. Nutqiy portret nuqtayi nazaridan nevaraginam, do'ndiqqina, bag'riginam kabi shakllar personajning

tinglovchiga yaqin hissiy munosabatini bevosita nutq orqali ko'rsatadi. "Yig'lamasin, yig'lamasin" takrori esa hissiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Demak, personajning hissiy qiyofasi birgina erkalash vositasi emas, bir nechta lisoniy vositaning o'zaro uyg'unligi orqali yuzaga keladi.

Bir xil shaklning barcha kontekstlarda bir xil muloqotdagi vazifani bajarishi shart emas. Z. Hamidov -gina shaklning erkalash bilan bir qatorda kinoya ma'nosini ham ifodalashi mumkinligini ko'rsatadi [2, 23-b.]. Bu holat nutqiy portretni tahlil qilishda shaklning o'zidan ko'ra uning kontekstual vazifasiga tayanish zarurligini ko'rsatadi.

Murojaat shakllari va ijtimoiy-muloqotga oid qiyofa. G'afur G'ulom nasrida murojaat birliklari qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy va hissiy munosabatni ko'rsatishda faol qatnashadi. Z. Hamidov qarindosh bo'lmagan shaxslarga ham qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar bilan murojaat qilinishini, shuningdek, o'rtoq, o'rtoq doktor, birodar, og'ayni, taqsir kabi birliklarning personajlar nutqida qo'llanishini qayd etadi [2, 20-22-b.].

"Shum bola"da bosh qahramon notanish imomga "Otajon, musofirman" deya murojaat qiladi [4, 43-b.]. Boshqa bir vaziyatda esa "Mana shu yorug' yulduzning oti nima, otaxon?" shakli qo'llanadi [4, 96-b.]. Otajon va otaxon birliklari faqat tinglovchini nomlash bilan cheklanmay, so'zlovchining muloqotda hurmatga asoslangan munosabatni tanlayotganini ham ko'rsatadi. Shu sabab murojaat shakli qahramonning ijtimoiy-muloqotga oid nutqiy portretini belgilovchi vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Haqorat, qarg'ish va salbiy baholash. Personaj nutqidagi salbiy hissiy birliklar ham nutqiy individuallashtirishga xizmat qiladi. "Yodgor"da "U meni "chayqovchi" deydi. Men uni "tantiq, satang" deyman" shaklidagi baholovchi nomlar qo'llanadi [5, 116-b.]. Ushbu nutqiy vaziyatda boshqa shaxsga munosabat neytral tavsif bilan emas, aynan salbiy baholovchi nomlash orqali yuzaga chiqadi.

"Shum bola" asarida bosh qahramon sigirga nisbatan "Go'shting olaqarg'aga xomtalash bo'lgur" deya qarg'ish ifodasini qo'llaydi [4, 83-b.]. Z. Hamidov bunday qarg'ishlarni salbiy hissiy-ta'sirchan qatlamga kiritib, ularning personaj xarakterini ochish va komik ta'sir hosil qilishdagi vazifasini ko'rsatadi [2, 18-19-b.]. Tadqiqotchi Hoji bobo va Shum bola nutqidagi qarg'ishlarning shakl hamda ta'sirchanlik jihatidan farqlanishini ham qayd etadi [2, 19-b.]. Bu esa bir xil funksional guruhga mansub birliklarning turli personajlarda individual nutqiy belgi hosil qilishini ko'rsatadi.

So'zlashuvga xos va ijtimoiy belgilangan leksika. "Netay" materialida "...zurna chagirib qimor o'ynayurlar. Sag'oshmoq o'lmaz. Xoni so'yla, na istayursan?" shaklidagi nutqiy parcha keltiriladi. Z. Hamidov bu o'rinda yozuvchi personaj nutqini aynan berish uchun adabiy til me'yoridan farqlanuvchi dag'al, oddiy so'zlashuv elementlaridan foydalanganini ta'kidlaydi [2, 43-b.].

Bunday nutqiy shakllar personajning lisoniy individualligini yuzaga chiqaradi. Ularni me'yoriy nutqdan chekinish sifatida emas, badiiy personajning o'ziga xos nutqiy qiyofasini yaratadigan uslubiy vosita sifatida baholash maqsadga muvofiq. Z. Hamidov iste'mol doirasi chegaralangan qatamlar, jumladan, dialektizm, jargon, argo va vulgarizmlarning ham badiiy matnda funksional-uslubiy vazifa bajarishini ko'rsatadi [2, 32-43-b.].

Nutqiy aktlar va muloqotga oid portret. Qahramon nutqiy portreti faqat uning qanday so'zlarni ishlatishi bilan emas, nutq orqali qanday muloqotga oid harakatni amalga oshirishi bilan ham belgilanadi. N. A. Qazaqova nutqiy akti jumla yoki matn orqali ifodalanadigan va tinglovchiga yetkaziladigan umumiy maqsad hamda mazmun bilan bog'laydi [3, 20-b.].

Muallif "Shum bola"dagi "Xo'sh, qayoqqa qochamiz, taqsir? — Xudoyi taoloning dargohi keng, to'rt tomonimiz qibla. Yuqoriga, Qing'iroq tepa tomonga qochamiz" dialogini qaror qilish nutqiy akti sifatida tasniflaydi [3, 20-b.]. Ushbu dialog asarning 2018-yilgi nashrida ham aynan shu mazmunda berilgan [4, 31-b.]. "Qo'rqma, bultur tog'am bilan shu yaqin orada bir bo'zagar kampirning uyida yotib qolganmiz..." mazmunidagi replika esa taskin berish nutqiy akti sifatida ajratilgan [3, 20-b.]; badiiy matnda u 25-sahifada uchraydi [4, 25-b.].

Qaror qilish, taskin berish, rozilik bildirish, istak yoki ishonchsizlikni ifodalash kabi nutqiy harakatlar personajning muloqotdagi pozitsiyasi va muloqotga oid xulqini ochadi. Shu jihatdan nutqiy aktlar qahramonning muloqotga oid portretini shakllantiruvchi muloqotdagi nutqiy belgi sifatida xizmat qiladi.

Oldindan ma'lum yashirin axborot va kinoyaviy tagma'no. N. A. Qazaqova oldindan ma'lum yashirin axborot, implikatura va tagma'noni bevosita ifodalanmagan, ammo umumiy bilish fondi hamda nutqiy vaziyat asosida anglanadigan axborot bilan bog'laydi [3, 18-b.]. Bu jihat personaj nutqining faqat yuzaki ma'nosini emas, yashirin muloqotga oid mazmunini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

"Shum bola"dagi Mulla Omonboy bilan keskin suhbatdan so'ng bosh qahramonning "Mulla Omonboy, shahardagi qo'shchi-kulonchi, sayis, miroxo'r, boy-u boyonlar, oshna-og'aynilaringizga xat-patingiz yo'qmi..." mazmunidagi replikasi badiiy matnda 92-sahifada berilgan [4, 92-b.]. N. A. Qazaqova ushbu muloqot parchasida ochiq ifodalangan mazmun bilan so'zlovchi maqsadi o'rtasida qarama-qarshilik mavjudligini, tagma'no esa piching, kinoya va achitish mazmunini yuzaga chiqarishini ko'rsatadi [3, 19-b.].

Mazkur misolda personajning muloqotga oid qiyofasi ochiq mazmun bilan cheklanmaydi. Tashqi shaklda salom yetkazish taklifi ifodalansa-da, nutqiy vaziyat yashirin kinoyaviy mazmunni faollashtiradi. Demak, qahramon nutqiy portretining muloqotga bog'liq qatlamini tahlil qilishda ochiq va yashirin mazmunlar o'rtasidagi munosabat muhimdir.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari G'afur G'ulom nasrida qahramon nutqiy portreti bir yoki ikki til birligi bilan emas, balki turli sathdagi vositalarning o'zaro uyg'unligi orqali shakllanishini ko'rsatdi. Bu holat N. A. Qazaqovaning G'afur G'ulom nasriy asarlarida fonetik, leksik, grammatik va umumiy matniy vositalar yaxlit majmua hosil qilib, ta'sir va samaradorlikka xizmat qilishi haqidagi xulosasi bilan uyg'unlashadi [3, 21-b.].

Z. Hamidovning tadqiqoti G'afur G'ulom nasrining leksik qatlamini, ayniqsa, hissiy bo'yoqdor, iste'mol doirasi chegaralangan va so'zlashuvga xos birliklarni aniqlash uchun muhim asos yaratadi [2, 16-23; 32-43-b.]. Mazkur

maqolada ushbu birliklar yana bir bosqichda — qahramonning hissiy, ijtimoiy va individual nutqiy qiyofasini shakllantiruvchi belgilar sifatida tizimlashtirildi.

N. A. Qazaqova tadqiqotida shaxs, nutqiy vaziyat, muloqotga oid strategiya va taktika, nutqiy akt, baho, oldindan ma'lum yashirin axborot va tagma'no kabi kategoriyalar markaziy o'rin egallaydi [3, 8; 12; 18–20-b.]. Ushbu maqolada mazkur nutqiy-muloqotga oid hodisalar qahramonning muloqotga oid nutqiy portreti bilan bog'landi. Natijada personajning nutqiy qiyofasi nafaqat qaysi til birliklarini tanlashi, balki ularni qanday vaziyatda, qanday maqsadda va qanday ochiq yoki yashirin mazmun bilan qo'llashi orqali ham namoyon bo'lishi ko'rindi.

O. I. Astashovning nutqiy portretni lisoniy materialni tizimlashtirish va til shaxsining qiyofasini yaratish usuli sifatidagi yondashuvi [1, 64-b.] G'afur G'ulom personajlari nutqini tahlil qilishda umumiy metodologik tayanch vazifasini bajardi. Biroq real shaxs nutqiga mo'ljallangan ushbu model badiiy personajga aynan ko'chirilmay, maqola materiali va maqsadiga moslashtirildi.

Tahlil qilingan material asosida qahramon nutqiy portretini shakllantiruvchi vositalarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin: hissiy-baholovchi vositalar; ijtimoiy-muloqotga oid murojaat va nomlashlar; leksik-uslubiy individuallashtirish vositalari; muloqotga oid nutqiy vositalar. Ushbu guruhlar bir-biridan mutlaq ajralgan emas: masalan, murojaat birligi bir vaqtning o'zida ijtimoiy munosabat va hissiy bahoni, qarg'ish esa leksik-uslubiy belgi bilan birga muloqotdagi ta'sirni ham ifodalashi mumkin.

Tadqiqotning chegarasi shundaki, fonetik, sintaktik va frazeologik vositalar qahramon nutqiy portreti nuqtayi nazaridan alohida tizimli tahlil qilinmadi. Shu sabab xulosalar aynan tekshirilgan leksik-uslubiy va muloqotga bog'liq qatlam bilan chegaralanadi.

XULOSA

1. G'afur G'ulom nasrida qahramon nutqiy portreti birgina lisoniy vosita bilan emas, leksik-uslubiy va nutqiy-muloqotga oid belgilarning o'zaro munosabati orqali shakllanadi.

2. Hissiy-baholovchi birliklar, xususan, erkalash, hurmat, haqorat va qarg'ish shakllari personajning tinglovchiga munosabatini bevosita nutq orqali ochadi; ularning nutqiy-muloqotga oid qiymati kontekstga bog'liq holda aniqlanadi.

3. Murojaat shakllari qahramon nutqiy portretining ijtimoiy-muloqotga oid komponentini shakllantiradi. Tanlangan murojaat birligi so'zlovchining tinglovchiga munosabati va ular o'rtasidagi muloqot xususiyatini ko'rsatadi.

4. So'zlashuvga xos va ijtimoiy belgilangan leksik vositalar personaj nutqini individuallashtirib, uning boshqa qahramonlar nutqidan lisoniy jihatdan farqlanishiga xizmat qiladi.

5. Nutqiy aktlar qahramonning muloqotga oid xulqini ochadi. Qaror qilish, taskin berish, rozilik, istak yoki ishonchsizlik kabi nutqiy harakatlar personajning muloqotdagi pozitsiyasini namoyon etadi.

6. Oldindan ma'lum yashirin axborot va kinoyaviy tagma'no personaj nutqiy portretining yashirin qatlamini shakllantiradi. Bunday hollarda qahramonning muloqotga oid xususiyati ochiq ma'no bilangina emas, nutqiy vaziyat va yashirin mazmun orqali ham yuzaga chiqadi.

7. Tahlil qilingan material asosida qahramon nutqiy portretini shakllantiruvchi vositalarni hissiy-baholovchi, ijtimoiy-muloqotga oid, leksik-uslubiy individuallashtiruvchi va muloqotga oid nutqiy guruhlariga ajratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Асташова О. И. Речевой портрет Н. Ю. Белых: динамический аспект // *Политическая лингвистика*. – 2011. – № 3 (37). – С. 64–68. <https://politlinguistika.ru/images/3-2011/9.pdf>
2. Hamidov Z. *G'afur G'ulom prozasi leksikasi*. – Toshkent: O'zMU, 2003. – 48 b. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/9-o-zbek-adabiy-tili?download=11341:ziyodulla-hamidov-g-afur-g-ulom-prozasi-leksikasi>
3. Qazaqova N. A. *G'afur G'ulom nasriy asarlarining pragmalingsvistik tadqiqi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati: 10.00.01 – O'zbek tili*. – Farg'ona, 2019. – 49 b. <https://oak.uz/pages/3825>
4. G'ulom G'. *Shum bola: qissa*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 192 b. – ISBN 978-9943-5316-3-5. https://kitobsevar.uz/kxpv/xrpt_duaejskhacv4ndsmh5fpmletrn5ag8vhc5suf2vhlvnp70z2eeepjt95846e1pl4j6npv0z9m.pdf
5. G'ulom G'. *Tanlangan asarlar. Nazm va nasr / tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Olmos; mas'ul muharrir N. Karimov*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 352 b. <https://qr.natlib.uz/file/read/0da2289a-61e7-484e-8f8c-5bebb2ba8e17.pdf>